



## GILOS NAVLARINI VSL-2 PAYVANDTAGINING HOSILDORLIGIGA TASIRI

**X.Xonqulov**

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali o'qtuvchisi

**K.Saporbayev**

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali magistri

**Z.Rajabova**

Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda gilos navlarida mevalarining miqdori ham har xil hisoblanadi. Ularning hosildorligi ko'p jihatdan tashqi muhit omillari, tuproq tarkibi va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan lekin hozirgi kunda gilos navlarini hosili payvandtag turiga ham bog'liq bo'lmoqda. Shu Payvandtaglardan VSL-2 payvandtaglariga payvandlangan gilosning bir necha navlarini ulangan navlarini hosildorligini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** gilos navlari, payvand, hosildorlik, vegetativ kurtaklar, generativ kurtak, gul kurtaklar.

**Kirish.** Tajribamizda gilosning "Krasnodarskaya Rannyaya", "Bahor", "Serdse Danko", "Krupnoplodnaya", "Kosmicheskaya" navlarini bir biriga taqqoslab o'rganildi. Nazorat sifatida Krasnodarskaya Rannyaya navi olindi. Gilos navlari fevral oxiri-mart boshlarida vegetatsiya davri boshlanishining o'rta muddatidir, aprelning birinchi yarmida gullab boshlaydi. Shunday qilib, gilosning "Krasnodarskaya Rannyaya" navida gul kurtaklari soni 1188 sonda ammo vegetativ kurtaklari, 3678 dona vegetativ kurtak mavjudligi aniqlandi. Bahor navida gul kurtaklari soni 6075 dona, vegetativ kurtaklari esa 2197 dona hosil bo'ldi. Undan tashqari, Serdse Danko navida bo'lsa gul kurtaklari 3813 dona hosil bo'ldi o'suv kurtaklari esa 2298 dona hosil bo'ldi. Krupnoplodnaya navida hosil bo'lgan gul kurtaklari soni 4905 dona va vegetativ kurtaklari 1836 dona ekanligi shu bilan bir qatorda kosmicheskaya navida bo'lsa generativ kurtaklari soni 4653 dona vegetativ kurtaklari esa 1827 dona ekanligini tajribada kuzatdik. Shuni aytish mumkinki bu navlarda bahor navida boshqa navlarga qaraganda ko'proq generativ kurtak hosil bo'ladi. (1-jadval).

1-jadval

Gilos navlarining kurtaklarini VSL-2 payvandtagiga ulangan gul va o'suv kurtaklarining shakllanishi (Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali "Axborot maslahat markazi", bog' 2022 yil ekish sxemasi 4x2,5m.)

T/r	Navlar	Kurtaklar, jami			
		Gul		O'suv	
		Soni	%	Soni	%
1.	Krasnodarskaya Rannyaya (k)	1188	24	3678	76
2.	Baxor	6075	73	2197	27
3.	Serdse Danko	3813	62	2298	38
4.	Krupnoplodnaya	4905	73	1836	27
5.	Kosmicheskaya	4653	73	1827	28



Tajribada shu narsani guvohi bo‘ldim gilos navlarining novdalarining yoshi ham hosil bo‘ladigan kurtaklar soni ham bog‘liq ekanligini asosiy kurtaklar uch yoshgacha bo‘lgan novdalarda yaxshi hosil bo‘ladi keyingi yillarga kelib gilos navlarida gul kurtaklari hosil bo‘lish foizi keskin kamayib ketishini tajribada kuzatildi. Bulardan krasnodarskaya rannyaya (k) navida bir yoshli shoxlarida 40 % ga yaqin gul kurtaklari paydo bo‘lsa ikkinchi yildagii esa bu sonlar ortdi yani 46,5 % ni tashkil qildi ammo 3 yillik shoxlarida esa gul kurtaklari 10,5 % ni tashkil etkanini kuzatildi 4 yillik novdalarda gul kurtak soni keskin pasayib ketganini kuzatildi.

Bundan tashqari bahor navining bir yillik novdasida gul kurtakni boshqa navlarga qaraganda nisbatan kam miqdorda paydo bo‘lgan ya’ni 9,6 foizni tashkil etdi. Ikki yillik novdada gul kurtaklar anchagini ko‘p miqdorda uchratish mumkin 48,9 % ni. 3 yillik shoxlari bo‘lsa 34,4 % gul kurtak hosil qildi 4 va 5 yillik shoxlarida gul kurtak hosil bo‘lishi nazorat naviga o‘xshab keskin kamayib ketganini ko‘rdim.

Serdse danko navida bir yoshli novdada generativ kurtaklar soni 12,1 foizni tashkil etdi. Ikki yoshli kurtaklarida bo‘lsa 41,3 foiz gul kurtak uch yoshli novdada bo‘lsa 46,6 foiz gul kurtak paydo bo‘lgan va boshqa navlarning hosil qilgan kurtaklaridan nisbatan ko‘proq hosi bo‘lganini kuzatildi ammo to‘rt va besh yoshli novdalarida gul kurtak hosil qilmasligini ham tajribada ko‘rib chidik.

Krupnoplodnaya navida bir yoshli novdalarida 16,2 %, ikki yoshli novdalarida esa 39,7 %, uch yoshli novdalarida 44,1 foiz gul kurtak hosil bo‘ldi ammo to‘rt va besh yoshli novdalarda serdse danko navi singari ummuman gul kurtak hosil qilmadi.

Kosmicheskaya naida gul kurtaklari bir yoshli novdalarida 20,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa ikki yoshli novdalarda boshqa navlariga qaraganda yaxshiroq nisbatni ko‘rsatdi ya’ni 54,7 foiz hisoblanadi. Uch yoshli novdalarda 15,4 foiz gul kurtak hosil qildi, to‘rt va besh yoshli novdalarda gul kurtaklar hosil bo‘lishi keskin kamaydi. 2-jadval

2-jadval

Gilosni turli navlari VSL-2 payvandtagiga ulanganda turli yoshdagi novdalarda gul kurtaklarining hosil bo‘lishi.

T/r	Navlar	Turli yoshdagi shoxlardagi gul kurtaklari, %				
		1 yosh	2 yosh	3 yosh	4 yosh	5 yosh
1.	Krasnodarskaya Rannyaya (k)	40,0	46,5	10,5	3,0	0,9
2.	Baxor	9,6	48,9	34,4	6,8	0,3
3.	Serdse Danko	12,1	41,3	46,6	0	0
4.	Krupnoplodnaya	16,2	39,7	44,1	0	0
5.	Kosmicheskaya	20,8	54,7	15,4	9,1	0

Gilos navlarini VSL-2 payandtagiga ulanganda gilos mevalarining hosildorligi ortganini tajribada kuzatishimiz mumkin. Gilos navlarida hosildorligi 22,99 -29,21 T/ga ni tashkil qildi.hosilning og‘irligi gilos naviga qarab ham har xil ko‘rinishni tashkil qildi. (3-jadval)



3-jadval

Gilos navlari mevalarining xususiyatlari (Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali  
 “Axborot maslahat markazi”, bog‘ 2022 yil ekish sxemasi 4x2,5m.)

T/r	Navlar	Payvandtag VSL-2	
		Meva vazni, gr	Meva danagi mag‘zi vazni,
1.	Krasnodarskaya Rannyaya (k)	5,4	0,3
2.	Baxor	8,0	0,5
3.	Serdse Danko	5,4	0,4
4.	Krupnoplodnaya	9,0	0,5
5.	Kosmicheskaya	7,0	0,4

**Xulosa.** Gilos navlarining VSL-2 payvandtagiga ulanganda uni hosildorligini oshganini tajribada kuzatildi undan tashqari tashqi muhit omillariga ham moslashuvchanligi va hayotiy faoliyatni kuchayganligini tajribada ko‘rdik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Abrorov. Zamonaviy intensiv gilos bog‘lari. T.: 2018 b 27-42.
2. Z.Abdugayumov. Gilos payvandtaglari. T.:2018 b 46-52.